

## OLIV TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM JARAYONIDAGI O'QITISHNING KREDIT TIZIMI MOHIYATINI TUSHUNISH OMILLARI

**Axmedov Shavkatbek Baltabaevich**

Andijon davlat Pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7217579>

*Annotasiya.* Mazkur maqolada O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish metodi ishlab chiqilib tahlil etilmoqda. Bu metodni rivojlantirish uchun konsepsiya ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit tushunchasi ko'p qirrali tushuncha bo'lib o'tgan asrning oxirlarida zamonoviy pedagogikada keng qo'llanila boshlangan. Kredit tushunchasi ta'lim tizimida yoritilishi haqida bayon qilingan.

*Kalit so'zlar:* kredit tizim, menejment, didaktik jarayonlar, mustaqil o'zlashtirish, internet sayt.

## ФАКТОРЫ ПОНИМАНИЯ СУЩНОСТИ КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Аннотация.* В данной статье разрабатывается и анализируется метод адаптации к системе образования Узбекистана. Для разработки этого метода важно разработать концепцию. Понятие кредита является многогранным понятием и стало широко использоваться в современной педагогике в конце прошлого века. Изложена концепция кредита, которая будет освещена в системе образования.

*Ключевые слова.* кредит система, управление, дидактические процессы, самостоятельное освоение, интернет сайт.

## FACTORS OF UNDERSTANDING THE ESSENCE OF THE CREDIT SYSTEM OF EDUCATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION

*Abstract.* This article develops and analyzes the method of adaptation to the education system of Uzbekistan. To develop this method, it is important to develop a concept. The concept of credit is a multifaceted concept and became widely used in modern pedagogy at the end of the last century. The concept of credit is outlined, which will be covered in the education system.

*Keywords.* credit system, management, didactic processes, self-development, internet site.

### KIRISH

Hozirgi kunda dunyoning ko'pgina davlatlarida keng foydalanib kelinayotgan o'qitishning kredit tizimini, O'zbekiston sharoitiga nazariy va amaliy jihatidan moslashtirish masalasi juda muhim hisoblanadi. Hukumatning qator qarorlariga asosan Andijon davlat pedagogika institutida ham o'qitishning kredit tizimiga muqarrar o'tishiga va uni ta'lim tizimiga joriy etishiga olib keldi. Bu tizim chet elda katta tajribaga ega bo'lib ishlashiga qaramay uni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish metodi ishlab chiqilib tahlil etilmoqda.

Bu metodni rivojlantirish uchun konsepsiya ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit tushunchasi ko'p qirrali tushuncha bo'lib o'tgan asrning oxirlarida zamonoviy pedagogikada keng qo'llanila boshlangan. Dastlabki paytlarda kredit tushunchasi o'quv materiallar tarkibining bir qismini o'z ichiga oladigan axborot sifatida qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda o'qitishning kredit tizimi keng tushunchaga aylanib bo'lgan. O'qitishning kredit tizimi talabalarga o'z oldiga qo'ygan shaxsiy dasturi bilan mustaqil ishlashi, jumladan maqsadli

harakat va didaktik maqsadlarga erishish rejasini tuzishi, axborotlar manbalarini erkin izlab topishi, bilim olishning erkinligi mohiyatini tushunishi kabi imkoniyatlarini beradi. Shu bilan birga o'qitishning kredit tizimi talabalarning o'quv-bilim faolligini rag'batlantiradi, ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, ko'nikmalarni egallash bo'yicha bilim faoliyatini tashkil etishga yordam beradi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qitishning kredit tizimida talabalar berilgan individual dasturlar bilan mustaqil ishlashi, aniq maqsadli harakat rejasini tuzishi, kerakli ma'lumotlar bazasini to'plashi va didaktik maqsadlarga erishish uchun kerakli bilimlarni olishi mumkin. O'qitishning kredit tizimi talabalar o'quv faolligini rag'batlantiradi, ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun shaxsiy motivatsion faoliyatini tashkil etishga yordam beradi. Bundan tashqari, talabalar uchun o'qitishning kredit tizimi doimiy ravishda o'z-o'zini baholashni va yuqori sifatli va ritmik ishlarni rag'batlantirishni, o'qituvchi uchun esa uzluksizlikni ta'minlaydi. O'qituvchining vazifalari talabalarga axborot berish, nazorat qilish, maslahat berish va qilingan ishlarni muvofiqlashtirish, o'quv jarayonini nazorat qilish, reyting baholash ballaridan foydalangan holda talabaning joriy holati tahlil qilishdan iboratdir. Darhaqiqat, o'qitishning kredit tizimi bilan o'qituvchining axborot funksiyalari maslahat va menejment bilan almashtiriladi, shu bilan birga pedagogik jarayonda subyektiv munosabatlar doirasida yetakchi rolini saqlaydi. O'qituvchi uchun kredit tizimining o'quv jarayonida talabalar mustaqil faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish, bilim olish qobiliyatini takomillashtirish, talabalarning o'quv faoliyatini rag'batlantirish muammolarini hal qilishda yangi uslubiy yondashuvlarni amalga oshirishni talab qiladi. O'qitishning kredit tizimining o'zgaras elementlari: talabalar, o'qitish va tarbiyalash maqsadlari, o'qitish mazmuni, o'qituvchilar, didaktik jarayonlar, o'qitishning tashkiliy shakllari hisoblanadi.

Institutimizda ikki yildan buyon barcha 1-2-kurslarida informatikani o'qitish jarayonida o'qitishning kredit tizimidan keng foydalanib kelinmoqda. Kafedrani yetakchi o'qituvchilari chet el adabiyotlari va internet saytlari yordamida o'z fanlarini kredit tizimida o'qitish uslubini yangidan yaratdi, fan dasturini ("sillabusini") tuzdi va uni o'quv jarayoniga joriy etishga tayyorgarlik olib bordi. Bunda talabalar to'rt yil davomida har bir talaba 240 ta kreditni o'zlashtirishi lozim (kredit - qayta-qayta topshirish man etilgan, yagona bir marta o'qitiladigan va baholanadigan fanning 30÷40 soatli bir qismi). Oliy ta'lim Davlat ta'lim standartlarida belgilangan 168 xafta mobaynida talaba 9072 soatli (168 xafta \* 54 soatga) 240 kreditli o'quv materiallarini o'zlashtiradi (qolgan 36 xafta – ta'til va o'qish yo'q kunlar). Mazmun jihatdan, 240 ta kredit 144 akademik kredit (37 soatli) va 96 ta amaliy (39 soatli) kreditlarga bo'lingan. Kreditga ajratilgan soatlarni teng yarmi mustaqil o'zlashtirishga qaratilganligi uchun uslubiy ta'minotini tubdan o'zgartirilishini taqozo etadi. Aynan shu tomoni yangi tizimning asosiy qiyinchiligidir. Andijon davlat universitetining hamma yo'nalishlariga informatika fani uchun 240 soat ya'ni 8 ta kredit ajratilgan. Kredit tizimida majburiy fanlar bilan birgalikda qa'rib 40% tanlov fanlar mavjud bo'ladi va qaysi birini o'qishni talaba o'zi tanlaydi. Fanni tanlash bilan birgalikda uni o'qitadigan pedagog ham talabaga tanlanish huquqi belgilangan. Bunday vaziyat institut professor o'qituvchilari o'zlarini kasbiy, metodik, ilmiy saviyalarini oshirish bilan astoydil shug'ullanishini talab etadi. Olib borilgan izlanishlar ya'ni adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki o'qitishning kredit tizimining afzalliklari mavjud ekan. Shuning uchun o'qitishning

kredit tizimi O‘zbekistonning ta’lim tizimiga moslashtirilib va yagona ta’lim tizimi shakliga aylantirilmoqda.

## XULOSA

Mamlakatimiz OTMLari kredit-modul tizimiga o‘tishi bu muayyan miqdordagi kreditlarni yil, semestr va fanlar bo‘yicha taqsimlab qo‘yishning o‘zidan iborat emas. Agar kredit-modul tizimi to‘g‘ri va to‘liq joriy etilsa, u mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga juda katta ijobiy xususiyatlarni olib kirishini kutish mumkin.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son
2. bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha
3. rivojlantirish konsepsiyasi”, 1-ilovasi, 9- bandi.
4. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim Muassasalarida ECTS Kredit-
5. Modul Tizimi: Asosiy Tushunchalar va Qoidalar. 2020.
6. <https://www.xabar.uz/talim/kredit-modul-oqitish-tizimi-haqida>. 2:40/18.03.2021
7. <https://xs.uz/uzkr/post/kredit-modul-tizimiga-otish-nima-uchun-kerak-maqsdmohiyat-va-afzallik> 23:00/18.03.2021
8. <https://kun.uz/news/2020/07/22/oliy-talimda-kredit-modul-kelayotgan-oquvyilida-talabalarni-nimalar-kutmoqda> 22:34/18.03.2021
9. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-internet-boshqa-davlatlarga-nisbatanqimmatmi> 20:03/19.03.2021
10. <https://www.terabayt.uz/post/ozbekistonda-internet-nega-qimmat-akt-vazirligiizoh-berdi> 20:25/19.03.2021